

**PERSONIFIKATSIYANING PRAGMA-SEMANTIK XUSUSIYATLARI
(Isajon Sultonning “Xazinabon yoxud Hazrati Xizr izidan” asari misolida)**

Dilrabo Baxronova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, DSc.

Malika Mo‘minova

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti o‘qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan pragmalinqvistika doirasida personifikatsiya (jonlantirish) hodisasining pragma-semantik xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot obyekti sifatida yozuvchi Isajon Sultonning “Xazinabon yoxud Hazrati Xizr izidan” asari tanlab olingan bo‘lib, undagi mavhum tushunchalar va tabiat hodisalarining insoniylashtirilishi semantik, pragmatik va kontekstual tahlil metodlari yordamida ochib berilgan. Tahlillar natijasida personifikatsiyaning badiiy matnda shunchaki stilistik bezak emas, balki qahramonlarning ichki psixologik holatini vizuallashtiruvchi va o‘quvchiga kuchli hissiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhim lisoniy-pragmatik mexanizm ekanligi aniqlangan va ilmiy asoslangan.

***Kalit so‘zlar:** pragmalinqvistika, personifikatsiya, jonlantirish, semantik transformatsiya, kommunikativ niyat, nutqiy akt, badiiy matn, Isajon Sulton*

**ПРАГМА-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
ПЕРСОНИФИКАЦИИ**

**(на материале произведения Исаджона Султона «Хазинабон ёхуд
Хазрати Хизр изидан»)**

Дилрабо Бахронова,

DSc, профессор,

Узбекский государственный университет мировых языков,

Малика Муминова,

преподаватель, Ташкентский университет информационных технологий
имени Мухаммада аль-Хорезми.

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются прагма-семантические свойства явления персонификации (олицетворения) в рамках прагмалингвистики, являющейся одним из ведущих направлений современного языкознания. В качестве объекта

исследования выбрано произведение писателя Исажона Султона «Хазинабон, или По следам Хазрата Хызра», в котором гуманизация абстрактных понятий и природных явлений раскрывается с помощью методов семантического, прагматического и контекстуального анализа. В результате анализа научно обосновано, что персонификация в художественном тексте является не просто стилистическим украшением, а важным лингвопрагматическим механизмом, визуализирующим внутреннее психологическое состояние героев и оказывающим сильное эмоциональное воздействие на читателя.

Ключевые слова: прагмалингвистика, персонификация, олицетворение, семантическая трансформация, коммуникативное намерение, речевой акт, художественный текст, Исажон Султон

**PRAGMA-SEMANTIC FEATURES OF PERSONIFICATION
(Based on Isajon Sulton's "Xazinabon yoxud Hazrati Xizr izidan")**

Dilrabo Bakhronova,

DSc, Professor,

Uzbekistan State World Languages University,

Malika Muminova,

Lecturer, Tashkent University of Information Technologies named after
Muhammad al-Khwarizmi,

ABSTRACT

This article examines the pragma-semantic properties of the personification phenomenon within the framework of pragmalinguistics, which is one of the leading fields of modern linguistics. The novel "Khazinabon or in the Footsteps of Hazrat Khizr" by the writer Isajon Sulton was selected as the object of research, in which the humanization of abstract concepts and natural phenomena is revealed through the methods of semantic, pragmatic, and contextual analysis. As a result of the analysis, it is scientifically proven that personification in a literary text is not merely a stylistic decoration, but an important linguo-pragmatic mechanism that visualizes the internal psychological state of the characters and exerts a powerful emotional impact on the reader.

Keywords: pragmalinguistics, anthropocentric paradigm, personification, semantic transformation, communicative intention, speech act, literary text, Isajon Sulton

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda badiiy matnni antroposentrik paradigma doirasida o'rganish dolzarb masalalardan biri sifatida olimlar nazaridan tushmay kelmoqda. Til endilikda shunchaki aloqa vositasi emas, balki inson tafakkuri, madaniyati va ruhiyati ifodasi sifatida keng tadqiq etilmoqda. Shu nuqtai nazardan pragmalingsvistika til birliklarining nutqiy vaziyatdagi maqsad va ta'sir mexanizmlarini o'rganadigan muhim yo'nalish sifatida tobora rivojlanmoqda.

Pragmalingsvistika til vositalarining inson ongiga ta'siri, muallif maqsadi va o'quvchi interpretatsiyasi o'rtasidagi munosabatni tahlil qiladi. Sh. Safarovning fikricha, pragmatika "insonning til orqali maqsadli faoliyatini o'rganuvchi fan" hisoblanadi [1, B. 42] Darhaqiqat, badiiy matnda qo'llangan har bir obraz, metafora yoki personifikatsiya kabi har bir badiiy tasviriy vosita muallifning kommunikativ niyatini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur ilmiy tadqiqotning obyektini personifikatsiya hodisasi tashkil etib, u inson tafakkuri va badiiy tasavvurining eng qadimiy hamda qudratli ifoda vositasi sifatida barcha zamonlarda adabiyot va san'atning muhim tarkibiy qismi bo'lib kelmoqda. Borliqni anglash jarayonida inson tabiat hodisalari, jonsiz jismlar yoki mavhum tushunchalarni o'z ruhiyati bilan uyg'un holda idrok etishga intilgan va ayni shu ehtiyoj natijasida jonlantirish yuzaga kelgan. Qadimgi yunon ritorikasida bu hodisa "prosopopoeia" atamasi bilan izohlangan bo'lib, u jonsiz jismlar yoki mavhum tushunchalarga insoniy sifat, xatti-harakat va his-tuyg'ularni yuklash usuli orqali talqin qilingan. Qadimgi mutafakkirlar, xususan, Aristotel badiiy nutq qudratining ko'p jihatdan uning obrazlilik va tasviriy vositalariga bog'liqligini ta'kidlagan. Shu bois, jonlantirish qadimdan nafaqat estetik bezak, balki o'quvchi yoki tinglovchining hissiyotiga ta'sir etuvchi poetik vosita sifatida ham qadrlangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Keyingi davrlarda personifikatsiya Yevropa stilistikasi doirasida metaforik tafakkurning eng muhim ko'rinishlaridan biri sifatida chuqur o'rganildi [8, 9]. Xususan, rus stilistika maktabi vakillari uning lingvopoetik salohiyatiga alohida e'tibor qaratdilar. V.Vinogradov jonlantirishni badiiy obrazlilikni kuchaytiruvchi poetik mexanizm deya baholab, uning tabiat va inson ruhiyati o'rtasida hissiy uyg'unlik yaratishga xizmat qilishini qayd etadi [2, C.118]. Olimning fikricha, jonlantirish orqali jonsiz narsa inson kechinmalariga yaqinlashadi va natijada matnning estetik-psixologik ta'siri kuchayadi. I.Galperin esa jonlantirishni stilistik semantikaning asosiy ifoda vositalaridan biri deb hisoblab, uni tasvir obyektini o'quvchi hissiyotiga yaqinlashtiruvchi poetik usul sifatida talqin qiladi [3, C.136].

Tadqiqotchining ta'kidlashicha, jonlantirish mavhum tushunchalarni jonli obraz darajasiga ko'tarib, o'quvchining hissiy idrok etish jarayonini yanada faollashtiradi.

Zamonaviy pragmatik lingvistik doirasida ham personifikatsiya hodisasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Zero, badiiy matndagi har bir obraz muallifning kommunikativ maqsadi va o'quvchiga ko'zda tutilgan ta'siri bilan chambarchas bog'liqdir. J. Ostin va J. Sirl tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasiga ko'ra, lisoniy birliklar nafaqat axborot uzatish vazifasini bajaradi, balki muayyan hissiy-pragmatik ta'sir ham ko'rsatadi [4, P. 94; 5, P. 58]. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, jonlantirish oddiy tasviriy vosita emas, balki o'quvchi tafakkuri va hissiyotiga faol ta'sir etuvchi estetik-pragmatik birlik sanaladi. Masalan, "*armon bo'y cho'zadi*", "*aql shoshadi*", "*yolg'izlik hukm suradi*" kabi iboralarda mavhum tushunchalarning insoniylashtirilishi ruhiy iztirob, ichki ziddiyat va psixologik zo'riqishni yanada kuchliroq ifodalashga xizmat qiladi. Bunday obrazlar o'quvchi ongida kuchli assotsiativ tasavvurlar uyg'otib, matnning hissiy shiddatini oshiradi.

O'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida ham jonlantirish badiiy tafakkurning muhim unsuri sifatida talqin etiladi. N. Mahmudov obrazlilikni badiiy tilning asosiy xususiyatlaridan biri deya baholab, jonlantirish hodisasini milliy poetik tafakkurning estetik ifoda shakllaridan biri sifatida ko'rsatadi [6, B. 54]. Olimning fikricha, tabiat hodisalari yoki mavhum tushunchalarga insoniy xususiyatlarni yuklash bevosita xalqning hissiy idroki, olamni poetik anglash usuli va milliy tafakkur tarzi bilan bog'liqdir. D. Quronov ham jonlantirishni inson ichki kechinmalarini bilvosita ifodalashning muhim poetik vositasi sifatida baholab, *shamol*, *tun*, *sog'inch*, *ayriliq*, *armon* kabi tushunchalarning jonlantirilishi badiiy matnda psixologik teranlik va hissiy ta'sirchanlikni kuchaytirishini ta'kidlaydi [7, B. 162].

Tadqiqotda badiiy nutqda jonlantirishning pragmatik-semantik xususiyatlari tahlili jarayonida bir necha usullardan foydalanildi. Semantik tahlil personifikatsiyalangan iboralarda ma'no o'zgarishlari va semantik transformatsiyalarni aniqlashga yordam berdi. Muallifning kommunikativ niyati va jonlantirishning o'quvchiga hissiy ta'sirini aniqlash uchun pragmatik tahlil qo'llanildi. Badiiy matnda jonlantirishning funksional rolini o'rganishda kontekstual tahlil, stilistik tahlil kabilar uning ekspressiv va estetik funksiyalarini ochib berishga yordam berdi.

Tadqiqotimizning predmeti sifatida "Xazinabon yoxud Hazrati Xizr izidan" asaridagi personifikatsiyalar tanlangan bo'lib, asar Isajon Sulton tomonidan 2002-yilda yozilgan. Unda Buxoroda joylashgan yetti pir avliyolar qadamjosini ziyorat qilgan insonning ruhiy va ma'naviy izlanishlari haqida hikoya qilinadi. Ziyorat

davomida uchragan turli insonlar va ularning taqdirleri orqali jamiyatdagi illatlar hamda muammolar ramziy yoritiladi. Yozuvchi xazinabon tilidan bu insonlar orqali ba'zi o'rinlarda insonning cheksiz nafs va ochko'zligi (boy bo'la turib yana boylik so'rab kelganlar misolida), boylik huzur-halovat olib kelmasligi turli badiiy tasviriy vositalar: o'xshatish, personifikatsiya, metafora, epitet orqali mohirona ifodalanadi.

Asarda insonlarning avliyolar huzuriga faqat so'rash va manfaat ko'zlab kelishi tanqidiy ruhda tasvirlangan. Asar o'quvchida shukronalik hissini uyg'onishiga turtki bo'lib qolmasdan, adog'i yo'q cheksiz istaklari xususida bir bor o'ylab ko'rishga undaydi. Muallif turli ramziy tasvirlar, falsafiy mushohadalar orqali insonning ma'naviy kamolot sari yo'li naqadar murakkab ekanligini ko'rsatishga muvaffaq bo'lgan.

Tahlillarimiz jarayonida personifikatsiyaning turli pragma-semantik xususiyatlari aniqlandi va tizimlashtirildi (1-jadval).

1-jadval. Personifikatsiyali birliklarning pragma-semantik tasnifi

Personifikatsiyali birlik	Semantik asos	Pragmatik vazifa
“armon bo'y cho'zadi”	Armonning jonlantirilishi	Ichki iztirobni kuchaytirish
“aql shoshadi”	Abstrakt tushunchaning insonlashuvi	Ruhiy tanglikni ifodalash
“shamol o'ynardi”	Tabiat hodisasining jonlantirilishi	Dinamik poetik tasvir yaratish
“yolg'izlik hukm surayotgan”	Psixologik holatning faol subyektga aylanishi	Ichki bo'shliqni chuqurlashtirish
“orzular ucharmikin”	Orzuning harakatlanishi	Umid va mavhumlikni ifodalash

Tadqiqot natijalari personifikatsiyaning badiiy matnda muhim pragma-semantik vazifa bajarishini ko'rsatdi. Avvalo, jonlantirish usuli matnning emotsional ta'sirchanligini kuchaytiradi. Jonsiz predmet yoki mavhum tushunchalarga insoniy xususiyat berilishi o'quvchida oddiy axborotdan ko'ra kuchliroq hissiy munosabat uyg'otadi. Masalan, “armon bo'y cho'zadi”, “aql shoshadi” kabi ifodalarda ruhiy holat obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalangan. Shuningdek, personifikatsiya abstrakt tushunchalarni konkret hissiy obrazga aylantiradi. Armon, yolg'izlik, sog'inch kabi mavhum kechinmalar jonlantirish orqali o'quvchi tasavvurida “tirik” holatda gavdalanadi. Bu esa matnning semantik chuqurligi va estetik qimmatini oshiradi.

Tahlillar muallifning ichki kechinmalarini bilvosita ifodalashda personifikatsiyaning muhim vosita ekanini ko'rsatdi. Muallif o'z ruhiy holatini bevosita bayon qilish o'rniga, uni shamol, tun, xotira yoki orzu kabi obrazlar orqali ifodalaydi. Natijada matnda psixologik ta'sirchanlik va poetik obrazlilik kuchayadi.

Endilikda personifikatsiyali sintagmalar tahlilidan sodda va murakkab qo‘shma gaplar tarkibida keladigan personifikatsiyalar xususida to‘xtalib o‘tamiz. Asarda 10ga yaqin personifikatsiyalar aniqlangan bo‘lib, shularning deyarli yarmidan ko‘pi sodda gaplar tarkibida uchramaydi.

Hech qayerda izlaganimni topmadim. Afrosiyob shamollari, Nurota izg‘irinlari, Samarqandu Buxoroning yetti avliyosi daxmalariyu noma‘lum toshlari...birontasi menga o‘z sirini ochmadi. Semantik nuqtai nazardan qaraganda, yuqoridagi gapni ikki ma‘naviy guruhga bo‘lib tahlil qilish maqsadga muvofiq: dinamik(harakatdagi) obyektlar va statik (turg‘un) obyektlar semantikasi. Birinchi turga kiruvchi *shamol* va *izg‘irin* harakatda bo‘lganligi uchun ularning “sir saqlashi” dinamik personifikatsiyani hosil qilib, ular sirlarni eshitgan va ularni o‘zi bilan olib kelayotgan guvohlar sifatida semantik yuk olgan. Ikkinchisi esa “*Avliyolar daxmalari*” va “*noma‘lum toshlar*” turg‘un obyektlar semantik hosilasi bo‘lib, ularning “*sir ochmasligi*” tarixiy xotiraning toshlarga muhrlanganligini anglatuvchi chuqur semantik ma‘noni yuzaga keltiradi.

Pragmatik jihatdan esa ushbu gapda “muloqotning uzulishi”(Communication breakdown) hodisasi kuzatilib, gapda yashirin (implicit) ma‘no bor: qahramon bu joylarni shunchaki tomosha qilmagan, u bu yerlardan ma‘naviy haqiqatni, o‘zligini yoki o‘zi bilmaydigan ilmlarni izlagan.

Do‘ndim shoxdan qo‘pgan quruq yaproqqa,

Sahar yeli, to‘zg‘it meni, ur meni.

Ko‘tar to‘zonimni bundan uzoqqa,

Yorning yalang oyog‘iga ur meni... Asarning birgina o‘rnida keltirilgan mazkur she‘riy misrada ham personifikatsiyalar talaygina uchraydi. Unda personifikatsiyaning maxsus turi — o‘zbek tilshunosligida nido (ritorik murojaat), g‘arb va ingliz tilshunosligida esa apostrofa (Apostrophe) deb yuritiladigan badiiy usul markaziy o‘rinni egallaydi.

To‘rtlikda o‘ziga xos semantik ma‘no kuzatiladi: birinchi misradagi “quruq yaproq” obrazi insonning jonsizlashuvini (depersonifikatsiya), “*sahar yeli*” esa jonsiz tabiatning jonlanishini ifodalaydi. Pragmatik jihatdan matndagi buyruq fe‘llari (“*to‘zg‘it*”, “*ur*”, “*ko‘tar*”) aslida iltijo va yolvorish funksiyasini bajarib, lirik qahramon tirik holida yoriga yetisha olmasligini anglagach (presuppozitsiya), o‘zini tabiat ixtiyoriga topshiradi. O‘zini maydalanib ketgan tuproq – to‘zonga qiyoslashi natijasida tasavvufiy ma‘no hosil bo‘lmoqda: insonning moddiy borlig‘I – tanasi yo‘q bo‘lib, ruhi va ishq zarralarga, ya‘ni to‘zonga aylanib, shu chang-to‘zon holida yorning oyoqlari ostiga urulishni orzu qilyapti.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasi doirasida badiiy matnni tahlil qilish inson omilini, uning tafakkuri, ruhiyati va dunyoni idrok etish mexanizmlarini tadqiqot markaziga olib chiqadi. Isajon Sultonning “Xazinabon yoxud Hazrati Xizr izidan” asari misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, personifikatsiya hodisasi matnda faqat estetik bezak yoki stilistik figura sifatida emas, balki murakkab pragma-semantik va lingvokognitiv funksiyalarni bajaruvchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jonlantirish birliklari abstrakt va falsafiy mazmundagi tushunchalarni konkretlashtirish, personifikatsiyalangan obrazlar vositasida qahramonlarning ichki kechinmalari hamda psixologik ziddiyatlarini ifodalash, shuningdek, matnning emotsional-ekspressiv va estetik ta’sirchanligini kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi. Mazkur birliklar badiiy voqelikni antropomorfik talqin qilish orqali o‘quvchining kognitiv faolligini oshiradi, muallif konsepsiyasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda matnning interpretativ imkoniyatlarini kengaytiradi.

Muallif personifikatsiya vositasida inson ruhiyatining murakkab va ko‘p qatlamli qirralarini badiiy jihatdan modellashtirishga, o‘quvchini ma’naviy-falsafiy mushohadaga undashga erishgan. Natijada personifikatsiyalar asarning nafaqat lingvopoetik, balki pragmatik va lingvomadaniy salohiyatini ham belgilovchi muhim konseptual vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa personifikatsiya hodisasini badiiy matnning mazmuniy-struktur yaxlitligini ta’minlovchi hamda muallifning individual badiiy tafakkurini aks ettiruvchi muhim lingvistik mexanizm sifatida baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – 286 б.
2. Виноградов В. В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – Москва: Издательство Академии наук СССР, 1963. – 255 с.
3. Galperin I. R. Stylistics. – 2nd ed. – Moscow: Higher School Publishing House, 1977. – 332 p.
4. Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962. – 168 p.
5. Searle J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.

6. Маҳмудов Низомиддин. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – 184 б.
7. Қуронов Дилмурод. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010. – 288 б.
8. Вахронова, D., & Turamuratova, I. (2024). Xorijiy tillarni o‘qitishning inson shaxsiy va ijtimoiy kamolotidagi ahamiyati. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 208-212).
9. Бахронова, Д. К. (2022). Ўзбек ва испан тилларида олам манзарасининг лингвокогнитив категорияланиши. Филол. фан. д-ри дисс, 245.